BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY-SUBYEKTIV POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich
Pedagogika fanlari doktori, professor
Ilmurodov Samadjon Xolberdiyevich
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish modelining nazariy-metodologik asoslari va tarkibiy tuzilmasi yoritilgan. Shuningdek, kasbiy-subyektiv pozitsiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilinib, modelning maqsadli, konseptual, protsessual-mazmunli hamda baholash-natijaviy komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda asoslangan. Modelning funksional mexanizmi identitet, subyektivlik, refleksiya va pedagogik qadriyatlar integratsiyasi hamda «fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash» sikli asosida tavsiflangan. Modelni oliy pedagogik ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mustaqilligi, pedagogik mas’uliyati, refleksiv faoliyati va kasbiy qaror qabul qilish kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy-subyektiv pozitsiya, pedagogik model, identitet, subyektivlik, refleksiya, pedagogik qadriyatlar, kompetentlik, oliy pedagogik ta’lim.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-СУБЪЕКТНОЙ ПОЗИЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье освещаются теоретико-методологические основы и структурное строение модели развития профессионально-субъектной позиции будущих учителей. Также анализируются современные педагогические подходы к развитию профессионально-субъектной позиции и обосновывается органическая взаимосвязь целевого, концептуального, процессуально-содержательного и оценочно-результативного компонентов модели. Функциональный механизм модели описывается на основе интеграции идентичности, субъектности, рефлексии и педагогических ценностей, а также цикла “мышление – действие – анализ – перепроектирование”. Внедрение модели в процесс высшего педагогического образования способствует развитию профессиональной самостоятельности, педагогической ответственности, рефлексивной деятельности и компетентности в принятии профессиональных решений у будущих учителей.

Ключевые слова: будущий учитель, профессионально-субъектная позиция, педагогическая модель, идентичность, субъектность, рефлексия, педагогические ценности, компетентность, высшее педагогическое образование.

A MODEL FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL-SUBJECTIVE POSITION OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article elucidates the theoretical and methodological foundations and structural framework of a model for developing the professional-subjective position of future teachers. Furthermore, it analyzes modern pedagogical approaches to the development of the professional-subjective position and substantiates the interconnectedness of the model's target, conceptual, procedural-content, and evaluative-resultative components. The functional mechanism of the model is described based on the integration of identity, subjectivity, reflection, and pedagogical values, as well as the "thought – action – analysis – redesign" cycle. The implementation of this model into the higher pedagogical education process serves to develop the professional autonomy, pedagogical responsibility, reflective activity, and professional decision-making competence of future teachers.

Keywords: future teacher, professional-subjective position, pedagogical model, identity, subjectivity, reflection, pedagogical values, competence, higher pedagogical education.

Kirish. Xalqaro ta'lim amaliyotida pedagogning kasbiy muvaffaqiyati uning faqat kasbiy kompetentligiga emas, balki o'z faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo'lishi, kasbiy identitetini anglashi, refleksiv faoliyatni amalga oshirishi, pedagogik vaziyatlarda tashabbuskorlik va mas'uliyatni namoyon etishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning subyektivligini rivojlantirish, ularni pedagogik faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish va kasbiy qarorlar qabul qilishga tayyorlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta'lim sohasini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori bilim, ko'nikma va malakaga ega, mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan pedagoglar tayyorlashni yangi bosqichga chiqarishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "oliy pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro talablarga moslashtirish hamda zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish" [1] vazifasi belgilangan. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muammoli, tadqiqotli va refleksiv o'quv muhitini

shakllantirish, kasbiy-subyektiv pozitsiyani rivojlantirish, shaxsiy maqsadlar va kasbiy vazifalarni uyg‘unlashtirish hamda o‘qitishning qadriyatli yondashuvga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlik, pedagogik identitet, subyektivlik, refleksiya va kasbiy pozitsiyani shakllantirish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini yagona konseptual yondashuv asosida rivojlantirish, uning tarkibiy komponentlari, funksional aloqalari va pedagogik mexanizmlarini tizimli model ko‘rinishida asoslash masalalari hali ham ilmiy izlanishlarni talab etmoqda. Ayniqsa, kasbiy identitet, subyektivlik, refleksiya va pedagogik qadriyatlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan modelni ishlab chiqish hamda uni oliy pedagogik ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo shaxsning kasbiy kamoloti, subyekt sifatida shakllanishi, pedagogik faoliyatda mustaqil qaror qabul qilishi hamda refleksiv rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda o‘qituvchi ta’lim jarayonining oddiy ijrochisi emas, balki ta’limni loyihalashtiruvchi, boshqaruvchi va takomillashtiruvchi faol subyekt sifatida e’tirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogik tadqiqotlarda o‘qituvchining kasbiy shakllanishi ko‘proq kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, refleksiya, identitet va pedagogik qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Mahalliy olimlar R.Djurayev, X.Ibraimov, O.Qo‘ysinov, R.Safarova va boshqalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda pedagogik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsalar [8,3,6,7], N.Abdullayeva, B.Ma’murov, D.Narzikulova va boshqalar refleksiv, qadriyatli hamda subyektga yo‘naltirilgan ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini ochib berganlar [2,4,5].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, ularda kasbiy identitet, refleksiya, subyektivlik, ichki motivlar va uzluksiz jarayonlarini modellashtirish va amaliyotga kiritish masalalari V.Suarez, J.McGrath, Z.Cai, Y.Liu, L.Deng, V.Senadheera, D.Ediriweera, T.Rupasinghe, X.Ye, T.Cheng, W.Yang, C.Mameli, V.Grazia, L.Molinari, S.Liu, H.Yin, Y.Wang tadqiqotlarida uchraydi [9,10,11,12]. Mazkur tadqiqotlarda kasbiy identitetning ko‘p qirrali tuzilmasini asoslash, model markazida ichki tayanchni ustuvorlashtirish, subyektivlikni alohida komponent sifatida kiritish,

jarayonga va uzluksizlikka tayangan bo‘lishi, pedagogik vaziyatni anglash muhimligi ilgari surilgan.

Shuningdek, jarayonini modellashtirish zarurati konseptual aniqlikka erishish, kasbiy-subyektiv pozitsiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, rivojlanish shartlari va natijalarini aniq ifodalash, mantiqiy tuzilmalashtirish, tarkibiy qismlarni yagona pedagogik tizimga birlashtirish, diagnostik asosni mustahkamlash, nazariy tavsif va empirik tekshiruvni uyg‘unlashtirish, aniq mezonlar, indikatorlarni ishlab chiqish, natijalarni talqin qilish, bashoratlash, rivojlanish trayektoriyasini belgilash, eksperimental metodikani loyihalash ehtiyoji bilan asoslanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish modeli pedagogik tayyorgarlikni zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar hamda shaxsning o‘z kasbiy rolini anglashi, unga nisbatan ichki munosabatini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish, refleksiya yuritish va amaliy faoliyatni ongli ravishda qayta loyihalashni ifodalovchi integrativ qobiliyati sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu holat kasbiy-subyektiv pozitsiya modelini ishlab chiqishda tashqi omillar bilan birgalikda ichki kasbiy “men” konsepsiyasini ham markazga qo‘yish zarurligini bildiradi. Shu asosda modelning takomillashtirilgan ko‘rinishi maqsad, konseptual, protsessual-mazmunli va baholash-natijaviy komponentlar hamda metodik faoliyatga uyg‘unlashgan kognitiv, hissiy, operativ va qadriyat mezonlari o‘rtasidagi funksional aloqadorlikka tayanadi. Uning ichki dinamikasi “fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash” sikli orqali amalga oshiriladi. Bu sikl bo‘lajak o‘qituvchini bilimni qabul qiluvchi obyektdan kasbiy rivojlanishni boshqaruvchi subyektga aylantiradi. Aynan shuning uchun mazkur modelda “vaziyatni tushunish, harakatni asoslash, natijani tahlil qilish va yangi qaror ishlab chiqish” yondashuvi bosh mexanizm sifatida tanlanadi.

Maqsad komponenti modelning strategik yo‘nalishini belgilaydi. Modelni loyihalashda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik vaziyatni tushunadish, ongli munosabat bildirish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyati mohiyatini anglash va refleksiya asosida o‘zini takomillashtirish imkonini beradigan kasbiy-subyektiv pozitsiyani rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Maqsad chuqur nazariy bilimga ega bo‘lish bilan birgalikda kasbiy identitet, ishonch, ichki motivatsiya, qadriyatli mas’uliyat, pedagogik tashabbus va barqarorlikni ham qamrab oladi.

Maqsadli komponenti to‘rtta vazifaga ajratiladi:

– kasbiy o‘zini anglashni rivojlantirish;

– pedagogik vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlikni kuchaytirish;

– metodik faoliyatni refleksiya bilan uyg‘unlashtirish;

– kasbiy rivojlanishni uzluksiz qayta loyihalash ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur vazifalarning bajarilishi tadqiqot oldiga qo‘yilgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tezkor o‘zgaruvchan ta’lim muhitida mustaqil, refleksiv, innovativ,

identiv va barqaror harakatlana oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash strategiyasini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Konseptual komponent tadqiqot maqsadini amalga oshirishning nazariy tayanchini tashkil etadi hamda kompetensiyaviy, integrativ, individuallashtirish, muammoli, subyektiv yondashuvlar va tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, uzluksizlik, mustaqillik, refleksivlik tamoyillari uyg‘unligiga asoslanadi.

Protsessual-mazmunli komponent modelning “qanday amalga oshiriladi?”, degan savoliga javob beradi. U kasbiy identitet, suvyektivlik, refleksiya va qadriyatni rivojlantirishga qaratilgan mazmun, metod, shakl, vosita va pedagogik shart-sharoitlarlar integratsiyasini belgilaydi hamda tizimli almalga oshiriladigan jarayonni ifodalaydi. Mazkur komponent doirasida metodika mazmuni amaliy muammolarni hal qilish, kasbiy qadriyat, axloqiy mas’uliyat va pedagogik refleksiya, didaktik materiallarni muammoli, bahsli vaziyatlar asosida shakllantirishga qaratiladi. Shu sababli faol, loyihaviy, muammoli, tadqiqotli, diskursiv va reflektiv o‘qitish, refleksiv-biografik topshiriqlar majmui, “Qadriyat” savollar algoritmi kabi metodlardan foydalaniladi. Jarayon esa muammoli vaziyatlar bilan ishlash, qaror qabul qilish, refleksiv amaliyot, hamkorlik va jamoada ishlash, loyihalashtirish, prediktiv prognozlash, keys tahlillari va portfoliolar orqali amalga oshiriladi.

Protsessual-mazmunli komponent quyidagi yo‘nalishlarni ifodalaydi:


kasbiy mazmunni subyektivlashtirish – jarayonda nazariya aniq pedagogik vaziyat bilan bog‘lanadi;

refleksiv-amaliy integratsiya – har bir metodik faoliyatdan keyin refleksiya majburiy bosqich sifatida kiritilad;

mentorlik va hamkorlikni protsessual mexanizm sifatida tashkil etish – mentor (tajribali o‘qituvchi) faoliyati bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy shakllantiruvchi hamkor bo‘lishga yo‘naltiriladi;

muammoli va variativ metodik vaziyatlardan foydalanish – vazifa noaniq va murakkab vaziyatlar shaklida shakllantiriladi;


portfolioga asoslangan kasbiy o‘sish – potfolioda pedagogik qarorlar mantig‘i, refleksiv yozuvlar, tahliliy xulosalar, xatolar va qayta loyihalash natijalari jamlanadi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish modeli

Baholash-natijaviy komponent esa modelning samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Baholash kognitiv, hissiy, operativ va axloqiy mezonlarning funksioanl aloqadorligi asosida majmuaviy diagnostika orqali amalga oshiriladi.

Modelni jarayonga tatbiq qilish “fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash” bosqichlarida amalga oshiriladi. “Fikrlash” bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik vaziyatni idrok etish, muammoni aniqlash, maqsadni belgilash va ehtimoliy strategiyalarni taqqoslashi tufayli unda kognitiv va qadriyat mezonlari yetakchilik qiladi. “Harakat” bosqichida tanlangan strategiya amaliyotga tatbiq etiladi. Shu sababli operativ mezon asosiy, hissiy barqarorlik esa yordamchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. “Tahlil” bosqichida natija, jarayon, xato, cheklov va kuchli jihatlar ochib beriladi. “Qayta loyihalash” bosqichida esa yangi metodik qaror ishlab chiqiladi va kelgusi faoliyat modeli loyihalanadi. (2-rasm).



2-rasm. Modelni jarayonga tatbiq qilishning “fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash” sikli

Fikrlash bosqichi (kuzatish va oldindan tasavvur qilish). Bu bosqichda pedagogik vaziyatlar kuzatiladi, ehtiyojlar aniqlanadi va eng to‘g‘ri yechimlar bashorat qilinadi. Unda quyidagilar amalga oshiriladi:

ta’lim oluvchilar ehtiyoji yoki muammoning mohiyatini aniqlash;

faoliyat maqsadini belgilash;

qaror variantini ishlab chiqish;

kutilayotgan pedagogik natijani oldindan tasavvur qilish.

Harakat bosqichi (amaliy faoliyat olib borish). Bu bosqichda qabul qilingan qaror amaliyotda sinab ko‘radi. Harakat individual pedagogik uslub, tashabbus va mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagilarni ifodalaydi:

dars yoki faoliyatni mustaqil tashkil etish;

tanlangan metodni qo‘llash;

vaziyatga mos tezkor qaror qabul qilish;

mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.

Tahlil bosqichi (refleksiya va dalilga asoslangan baholash). Bu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasi shakllanadi. Tahlil jarayoni

faoliyatni obyektiv ko‘rish, dalillash va xatolarni konstruktiv o‘zgarishga aylantirishga xizmat qiladi. Unda quyidagilar amalga oshiriladi:

bajarilgan ishni dalillarga asoslab baholash;

qarorning kuchli va zaif tomonlarini ajratish;

muammoning qay darajada hal etilganini aniqlash;

o‘z xatti-harakatlarini asoslash.

Qayta loyihalash bosqichi (yangi strategiya yaratish). So‘nggi bosqich faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z harakati natijasiga ko‘ra yangi, yanada samarali metodni tanlaydi yoki mavjud metodni o‘zgartiradi. Bu bosqich kasbiy-subyektiv pozitsiyasini barqaror rivojlantiradigan asosiy mexanizm bo‘lib quyidagilarni ifodalaydi:

o‘z faoliyatidan xulosa chiqarish;

yangi strategiya, metod yoki texnika ishlab chiqish;

dars rejasini qayta tuzish;

o‘z kasbiy-subyektiv pozitsiyasini mustahkamlash.

Mazkur bosqichlarning to‘g‘ri bajarilishi natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda nazoratning ichki tomonga yo‘naltirilishi, faol subyektlikni shakllanishi, qarorlarining muallifiga aylanishi, pozitsiyasining mustahkamlanishi, shaxsiy-kasbiy faoliyatining subyekti sifatida shakllanishi, aniq dalillar asosida o‘zini baholashi, o‘z harakatlarini ongli boshqarishi va o‘zgarishi uchun ichki motiv paydo bo‘lishi ro‘y beradi. Demak, mazkur sikl bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini barqaror rivojlantiruvchi kognitiv-amaliy mexanizm sifatida uni ijrochidan tahlilchiga, passiv obyektdan faol subyektga, tayyor metodlarni qo‘llovchidan muammolarni mustaqil hal qiluvchiga, nazorat obyektidan shaxsiy-kasbiy o‘sishining subyektiga aylantiradi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan nazariy tahlillar hamda ishlab chiqilgan didaktik-funksional model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish kasbiy identitet, subyektivlik, refleksiya va pedagogik qadriyatlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Modelning maqsadli, konseptual, protsessual-mazmunli hamda baholash-natijaviy komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mustaqillik, refleksiv fikrlash, pedagogik mas'uliyat va kasbiy qaror qabul qilish kompetentligini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

Model tarkibiga kiritilgan “fikrlash – harakat – tahlil – qayta loyihalash” sikli kasbiy-subyektiv pozitsiyaning ichki rivojlanish mexanizmini ifodalab, bo‘lajak o‘qituvchini pedagogik faoliyatning faol subyekti sifatida shakllantirishning didaktik asosini yaratadi. Shu jihatdan taklif etilgan model pedagogik ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va natijalarini baholashda metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashda kasbiy identitet, subyektivlik, refleksiya va pedagogik qadriyatlarning integratsiyasiga asoslangan didaktik yondashuvlardan foydalanish;

- pedagogik ta'lim mazmunini refleksiv-amaliy faoliyat, muammoli pedagogik vaziyatlar, loyiha topshiriqlari va portfolioga asoslangan o‘quv faoliyati bilan boyitish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faolligini kuchaytirish;

- kasbiy-subyektiv pozitsiyaning rivojlanish dinamikasini baholashda kognitiv, hissiy, operativ va axloqiy mezonlar asosida kompleks diagnostik yondashuvni qo‘llash;

- pedagogik amaliyot jarayonida mentorlik, hamkorlikdagi ta'lim va refleksiv tahlil texnologiyalaridan tizimli foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil kasbiy qaror qabul qilish tajribasini kengaytirish;

- oliy pedagogik ta'lim muassasalarida pedagogik fanlarning o‘quv-metodik ta'minotini taklif etilgan modelning tarkibiy komponentlari va funksional algoritmi asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Mazkur tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga hamda oliy pedagogik ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2025., 06/25/73/0389-son.

2. Abdullayeva N.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mas’uliyatni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 60 b.

3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika / darslik. – T.: “Shaffof”, 2023. – 416 b.

4. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 72 b.

5. Narzikulova D.X. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik nizolarlarning profilaktik texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2018. –112 b.

6. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: ped. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 70 b.

7. Safarova R.G‘., Yusupova F.I. Umumiy o‘ra ta’lim maktablarida modulli o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalar bankidan foydalanish mexanizmlari / o‘quv qo‘llanma. – T.: “Tafakkur qanoti”, 2017. – 148 b.

8. Джураев Р.Х. Оценка сформированности образовательных компетенций // “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – 8-14-b.

9. Paris C., Lung P. Agency and child-centered practices in novice teachers: Autonomy, efficacy, intentionality, and reflectivity. *Journal of Early Childhood Teacher Education, 2008.* 29(3), 253-268 https://doi.org/10.1080/10901020

10. Zhang Xinyue, Mohd Nazri Bin Abdul Rahman, Haris Bin Abd Wahab, Lianying Qiu. How mentor teachers and emotions influence professional identity and career decisions of preservice preschool teachers. Front. Educ., 26. August 2025. Sec. Teacher Education Volume 10 – 2025. https://doi.org/10.3389/feduc.2025.1569062

11. Liu S., Yin H., Wang Yu., Lu J. Teacher innovation: Conceptualizations, methodologies, and theoretical framework. Teaching and Teacher Education. Volume 145, July 2024, 104611. https://doi.org/10.1016/j.tate.2024.104611

12. Cai, Z., Liu, Y., Deng, L., et al. Preservice teachers’ teaching internship affects professional identity: Self-efficacy and learning engagement as mediators. Frontiers in Psychology, 2022. 13, 1070763.